

Rasuljon YUSUPOV,

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "Gumanitar fanlar" kafedrasida dotsenti, t.f.n..

E-mail: yusupovrasuljon2@gmail.com

Tel: 97-995-67-68

Sanjarbek ISOMIDDINOV,

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi talabasi

E-mail: sanjarisomiddinov147@gmail.com

Tel.: +998914865226

*Andijon viloyati Fuqarolik ishlari bo'yicha Asaka tumanlararo sudi raisi, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)
E.K.Sabirov taqrigi asosida*

GUARANTEE OF HUMAN RIGHTS IN THE LEGISLATION OF UZBEKISTAN

Annotation

About attention to human rights in Uzbekistan and efforts aimed at protecting them, as well as about the reflection of human rights in the legal system and the reforms and measures implemented in this field in recent years in our country, and the statistics of adopted normative legal documents and analysis and information about the extent to which human rights are reflected in them are presented in the article.

Key words: Human, reform, law, convention, UN, constitution, law, norm, value, freedom, duty, personal rights, immunity, Miranda rule, legal documents, legal system, human rights.

ГАРАНТИИ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

О внимании к правам человека в Узбекистане и усилиях, направленных на их защиту, а также об отражении прав человека в правовой системе и реформах и мерах, реализуемых в этой области в последние годы в нашей стране, и статистике принятых нормативно-правовые документы, анализ и информация о том, насколько в них отражены права человека.

Ключевые слова: Человек, реформа, закон, конвенция, ООН, конституция, закон, норма, ценность, свобода, обязанность, права личности, иммунитет, правило Миранды, правовые документы, правовая система, права человека.

O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA INSON HUQUQLARINING KAFOLATI

Annotatsiya

O'zbekistonda inson huquqlariga e'tibor va uni himoya qilishga qaratilgan say-harakatlar haqida, shuningdek, inson huquqlarining qonunchilik tizimimida aks ettirilishi hamda so'nggi yillarda mamlakatimizda bu sohada amalga oshirilgan islohotlar va chora-tadbirlar to'g'risida, va qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar statistikasi hamda ularda inson huquqlari qanchalik darajada aks etganligi haqidagi tahlillar hamda ma'lumotlar maqolada keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Inson, islohot, huquq, konvensiya, BMT, konstitutsiya, qonun, norma, qadriyat, erkinlik, burch, shaxsiy huquqlar, daxlsizlik, miranda qoidasi, normativ-huquqiy hujjatlar, qonunchilik tizimi, inson huquqlari.

Kirish. Inson huquqlari barcha halqlarning umumbashariy va ajralmas huquqi bo'lib, u qaysidir davlatga, millatga, elatga, yoki dinga tegishli bo'lmasdan, u hamma uchun bir xildir. Bu huquqlar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga asoslangan. Inson huquqlari xalqaro ko'lamda amal qilinish, xalqaro qonunlar, dunyoviy, diniy muassasalar, hukumatlar siyosati va nodavlat tashkilotlari tomonidan dunyo siyosatiga juda ham katta ta'sir ko'rsatadigan doktrinadir. Inson huquqlari bu insonlarga berilgan imtiyoz bo'lib u dunyoning ko'pchilik taraqqiy etgan mamlakatlarida qonunlar, konstitutsiyaviy qadriyatlar normalari yoki xalqaro konvensiyalar orqali tan olingan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham inson huquqlariga keng o'rin berilgan. Xaqi manfaatini hamma narsadan ustun qo'yilgan. Misol tariqasida shuni olishimiz mumkinki, agar shaxs o'z aybini tan olganligi boshqa dalillar bilan isbotlanmasa, uni javobgarlikka tortish uchun asos bo'lmasligi qonun bilan belgilab qo'yilgan[1]. Bu ham kelajakda kelib chiqishi mumkin bo'lgan ko'plab qonun buzilishlarini oldini oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mustaqil demokratik yo'ldan dadil odimlayotgan O'zbekistonning eng ulug' maqsadi, avvalo, xalqimiz manfaatlarini ko'zlangan islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan bilan e'tibordir. Bu jihatlar Konstitutsiyamizda ham mustahkamlab qo'yilgan[2]. Jumladan, Bosh Qomusimizning II bob 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va Qonunlar bilan himoya qilinadi" deb belgilanganligi ham yuqoridagi jummalarning yaqqol isbotidir. Inson huquqlari-insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohadagi imkoniyatlari hamda da'volarini tavsiflovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Inson huquqlari-har bir insonning millati, yashash joyi, jinsi, etnik kelib chiqishi, tanasining rangi, dini, tili va boshqa belgilaridan qat'i nazar, ajralmas huquqlaridir[3]. Barcha odamlar har qanday turdagi kamsitishlarni istisno qilgan holda, inson huquqlaridan bir xilda foydalanish huquqiga egadirlar. Ushbu huquqlar o'zaro bog'liq va ajralmasdir. Ushbu huquqlarni cheklab qo'yish yoki mahrum qilishga, agar qonunda boshqacha holatlar nazarda tutilmagan bo'lsa, hech kim haqli emas. Shu sababli, Inson huquqlarini himoya qilish uchun bir qator milliy va xalqaro qonunlar qabul qilingan, shartnoma va konvensiyalar imzolangan. Shu kabi normativ-hujjatlar mavjud bo'lsa-da, har bir inson ushbu huquqlarni ilgari surish va himoya qilishga majburdir. 1948-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ni (UDHR), ya'ni barcha insonlarga xos bo'lgan inson huquqlari ro'yxatini tuzdi. BMT a'zolari ushbu huquqlarni himoya qilish va rivojlantirishga va'da berishdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Muqaddima va 30 moddani o'z ichiga olgan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"da ko'rsatilgan huquqlarning aksariyati "fuqarolik huquqlari"[4] toifasiga kiritish mumkin, bu shaxsning jismoniy yaxlitligi va huquqiy himoyasi bilan bog'liq huquqlardir. Ularga quyidagilar misol bo'ladi:

1. Tenglik va yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy xavfsizlik;
2. Kamsitish, qullik, qiynoqlar va qadr-qimmatni kamsitadigan muomaladan ozodlik;
3. Shaxs sifatida qonun oldida tan olish huquqi va qonun doirasidagi tenglik;
4. Vakolatli sudga sudga murojaat qilish huquqi va adolatli sud muhokamasi huquqi;
5. O'zboshimchalik bilan hibsga olish va surgun qilish va shaxsiy hayot, oila, uy va yozishmalarga aralashishdan ozodlik;
6. Aybi isbotlanmaguncha aybsiz deb hisoblash huquqi;
7. O'z mamlakatida erkin harakatlanish huquqi va boshqa mamlakatlarda ta'qiblardan boshpana olish huquqi;
8. Fuqarolik huquqi va uni o'zgartirish erkinligi;
9. Turmush qurish, oila qurish va mulkka egalik qilish huquqi;
10. E'tiqod va din erkinligi[5].

Yurtimizda inson huquq va erkinligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga hamohang tarzda faoliyat yuritayotgan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi ham shu kabi ezgu ishlarni amalga oshirishga kamarbastalik qilmoqda. Joriy yil 31-oktyabr kuni Markaz tashkil etilganligiga 28 yil to'ladi. O'tgan davr mobaynida mazkur Markaz o'z oldidagi o'ta dolzarb sanalagan milliy harakat rejasini tuzish, Konstitutsiyamiz, qonunlar va inson huquqlari sohasidagi umumme'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlari qoidalarini amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish, inson huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish, mamlakatimizda inson huquqlariga rioya etilishi va bu huquqlarning muhofaza qilinishi yuzasidan milliy ma'ruzalar tayyorlash, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga, shuningdek, inson huquqlari bo'yicha jamoat birlashmalariga maslahatlar berish, inson huquqlarini rag'batlantirish va muhofaza qilishning turli jihatlarini yuzasidan tadqiqotlar o'tkazish kabi vazifalarni muvaffaqiyatli ado etib kelmoqda.

Shu munosabat bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori, yuridik fanlari doktori, professor Akmal Saidov "Turkiston-press" NAA muxbiriga quyidagilarni so'zlab berdi.

— Avvalo, shuni qayd etishni istardimki, yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng har bir sohada tub islohotlar jarayoni boshlandi, — deydi Akmal Saidov.

— Ayniqsa, inson huquqlarini ta'minlash borasida 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining O'zbekiston parlamenti tomonidan tasdiqlanganligi istiqolning ilk yillarida qabul qilingan muhim xalqaro huquqiy hujjat bo'ldi.

O'zbekistonda qisqa tarixiy muddat ichida milliy davlatchilikni shakllantirishning huquqiy asoslari yaratildi. Mamlakatimiz barcha rivojlangan huquqiy davlatlardagi kabi uch hokimiyatga, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga taqsimlandi. Xalq farovonligi yo'lida kuchli huquqiy davlatdan fuqarolik jamiyati sari ildam qadam qo'yish maqsadida erkin bozor munosabatlariga asoslangan kuchli iqtisodiyot barpo etildi. Shu tariqa, yurtimiz xalqaro huquqning to'laqonli va teng huquqli sub'ektiga aylandi.

Inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish, xalqaro tashkilotlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va aholining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida BMTning Inson huquqlari va boshqaruv tizimini demokratiyalashni qo'llab-quvvatlash dasturiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-oktyabrdagi Farmoni bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tuzildi. Farmonda Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazning maqsad va asosiy vazifalari aniq belgilab qo'yildi.

1996-yil 13-noyabrdagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori Milliy markaz faoliyatining tashkiliy-huquqiy asosi hisoblanadi. Ushbu qaror orqali Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi to'g'risidagi Nizom va Milliy markaz tuzilmasi tasdiqlangan.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi davlatga qarashli idoralararo tahlil, tushuntirish va muvofiqlashtirish organi hisoblanadi. Ya'ni, mazkur organ inson huquqlari sohasida davlat boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, inson huquqlari sohasidagi ishlar milliy rejasini ishlab chiqadi, O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha milliy ma'ruzalarini tayyorlaydi, davlat xizmatchilari uchun esa inson huquqlari muhofazasi sohasida axborot bazasini yaratadi, ularni o'qitadi, maslahatlar beradi, tashviqot ishlarini olib boradi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Markazning asosiy maqsadi bu ustuvor vazifalarni har tomonlama hal etish yo'li bilan Inson huquqlari sohasidagi Milliy faoliyat dasturini, huquq va erkinliklarni himoya etishning ko'p jihatli tizimini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishdan iborat.

Shu o'rinda, Milliy markazning xalqaro hamkorligiga ham to'xtalib o'tish joiz. Xususan, BMTning O'zbekistondagi Taraqqiyot Dasturi, EXHTning O'zbekistondagi Loyihalar Koordinatori, Xalqaro mehnat tashkiloti, O'zbekistondagi Evropa Ittifoqi delegatsiyasi, YUNESKO, YUNISEF, Xorijiy mamlakatlarning mamlakatimizdagi elchixonalari, qator xalqaro jamg'armalarning vakolatxonalarini bilan samarali hamkorlik o'rnatilgan. Xalqaro sheriklar bilan hamkorlikda respublikamizda inson huquq va erkinliklarini yanada mustahkamlash, himoya qilish va rag'batlantirishga yo'naltirilgan turli loyihalar amalga oshiriladi.

Hozirda Markazning Axborot-huquq bo'limi huzurida Markaziy Osiyoda yagona ixtisoslashtirilgan Inson huquqlari bo'yicha ommaviy kutubxona faoliyat yuritadi. Mazkur kutubxona o'zbek va xorijiy tillarda nashr etilgan kitoblar, jurnallar va boshqa adabiyotlardan iborat bo'lib, 5 mingdan ziyod nomdagi inson huquqlariga doir kitob fondiga ega. Markaz tomonidan inson huquqlari bo'yicha 150 dan ziyod to'plamlar, kitoblar va boshqa adabiyotlar davlat tilida ko'p ming adadda chop etildi.

O'zbekistonda Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning shakllanishi mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash jarayonlari doirasida davlat va jamiyatning barcha sohalarida demokratik islohotlar o'tkazish amalga oshirildi. 2008-yil 1-maydagi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida"gi prezident Farmoni O'zbekistonda Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning huquqiy maqomini mustahkamlash yo'lida yana bir muhim qadam bo'ldi, deyish mumkin. Prezident Farmonida inson huquqlarini himoya qilish tizimini tashkiliy-huquqiy jihatdan yanada takomillashtirish, shuningdek, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, moddiy-texnikaviy bazani mustahkamlash, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi

Milliy markazi va boshqa milliy institutlar bo'linmalarining samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish ko'zda tutilgan.

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadlarida milliy institutlarning qonunchilik asoslarini takomillashtirish O'zbekistonning demokratik o'zgarishlarga sodiqligini yana bir karra namoyish qilmoqda.

Ayni paytda mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarining huquqiy asoslari yaratilishi va uning amalda qo'llanishi hamda kafolatlanishini kuzatuvchi mexanizmlardan yuqorida tilga olib o'tilgan institutlar bilan bir qatorda Oliy sud huzuridagi Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazi va Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligida inson huquqlari bo'yicha bo'linmalar va boshqarmalar samarali faoliyat yuritmoqda.

O'zbekistonda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan printsip va normalari ustunligi konstitutsiyaviy asosda e'tirof etiladi. Bugungi kunda mamlakatimiz inson huquqlari bo'yicha 70 dan ziyod xalqaro hujjatlar, xususan, BMT tomonidan inson huquqlari bo'yicha qabul qilingan 10 ta majburiy xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilib, o'zining xalqaro majburiyatlarini muntazam ravishda bajarib kelmoqda.

Albatta, inson huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshiradigan ishlarimizning asosiy qismi fuqarolardan bo'ladigan murojaatlarni qabul qilish va ularni ijobiy hal etishga qaratilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu ma'noda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining asosiy faoliyat yo'nalishlari va uning tuzilmasi haqida to'xtaladigan bo'lsak, quyidagi raqamlarga e'tiboringizni qaratmoqchimiz: birgina Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limining o'ziga fuqarolar o'tgan yilning 9 oyi mobaynida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, shaxsiy huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan 1452 holat bo'yicha ariza, shikoyat va takliflardan iborat murojaatlarini bildirishgan. Bir kunda o'rtacha 192 ta holat bo'yicha tegishli huquqiy maslahat berilgan, 117 ta holat bo'yicha esa huquqlarni amalga oshishiga boshqa organlar bilan hamkorlik qilingan, 92 ta holat bo'yicha buzilgan huquqlar tiklangan. Shu bilan birga, Markazga telefon orqali bo'lgan ko'plab murojaatlarga huquqiy maslahat ham berib boriladi. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonning demokratik o'zgarishlarga sodiqligini namoyish qilish, yurtimizda kechayotgan ulkan o'zgarishlar va yangilanishlar davrida avvalo inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish birlamchi vazifalardan sanaladi. Bunda jamiyatimizda mavjud milliy institutlar ichida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining o'rni beqiyosdir.

Tahlil va natijalar. Bularning barchasi Konstitutsiya, Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlarimizda mustahkamlangan. Agar qaysidir shaxsning huquqi toptalsa u albatta, sudlarga murojaat qilishi mumkin. Misol uchun, kimdir biror shaxsni haqorat qilsa uni ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortishi mumkin. Agar u shaxs bu ishni bir marotaba qilgan bo'lsa ma'muriy javobgarlikka, ikkinchi marotaba sodir etgan bo'lsa jinoiy javobgarlikka tortiladi. Bugungi kunda sudlarning shaffofligini ta'minlash uchun ko'plab islohatlar olib borildi. Buning barchasi insonlarning huquqini hamma narsadan ustunligini ta'minlash maqsadida. Yangi Konstitutsiyamizda ham jahon mamlakatlaridan o'rnak olgan holda "miranda qoidasi" kiritildi, ya'ni "Miranda qoidasi" (ingl. Miranda warning) AQSHda yuzaga kelgan yuridik norma bo'lib, unga ko'ra, jinoyat sodir etishda gumon qilinuvchi shaxsni so'roq qilishdan oldin unga protsessual huquqlari tushuntirilishi kerak. Bu qoida 1966-yildagi AQSH Oliy sudi qaroridan kelib chiqadi. "Miranda qoidasi"dan ko'zlangan asosiy maqsad shaxsga o'z-o'ziga qarshi guvohlik bermaslik huquqini berish bo'lgan[6]. Bu esa shaxslarga ko'plab yengilliklar beradi. Xususan, shaxslar istalgan diniga e'tiqod qilishi mumkinligi ham konstitutsiya darajasiga ko'tarilgan. Hech kimni biror dinga o'tishga majburlash mumkin emas, shaxs istagan diniga e'tiqod qilishi yoki hech bir dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Sharqona urf-odatlarimizdan kelib chiqqan holda Konstitutsiyamizda Oila bobining mavjudligi(XIV bob "Oila,bolalar va yoshlar" bobi deb belgilangan, 76-80 moddalarni o'z ichiga oladi) ham bizda oilaga nisbatan hurmat bilan qarashimizni anglatadi. Unda shunday deyilgan, har kim o'z ixtiyori bilan oila qurishini, ularni hech kim oila qurishga majbur qilmasligi aytib o'tilgan. Bugungi kunda sudlar ham oilani asrab qolishga harakat qilmoqda. Ularga yarashib olish uchun sudlar olti oygacha muhlat berishi ham shundan dalolat. Bizning yurtimizda inson qadri Konstitutsiya darajasiga ko'tarilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev "inson qadri birinchi o'rinda bo'lmog'i darkor deb takror va takror ta'kidlashi bejiz emas. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Kostitutsiyasida, shuningdek, boshqa qonun hujjatlarida ham mana shu masalalarga katta e'tibor berilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining V bobida "Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" berilgan. Misol uchun, 20-moddasida "Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi"[7] deb belgilab qo'yilgani ham so'zimizning isbotidir.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak inson huquqi va erkinliklarini himoya qilish har bir davlatning bosh maqsadi bo'lishi lozim. Statistik ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi(O'zRes.QMMB)dagi, mustaqillikdan keyin to bugungacha yurtimizda 1323 ta qonun, 2617 ta Oliy Majlis palatalari kengashlarining(Oliy Majlis Kengashining, Oliy Kengash Rayosatining) hujjatlari, 4793 ta Prezident hujjatlari, 10 495 ta hukumat qarorlari, 8132 ta Vazirliklar,davlat qo'mitalar va idoralarning hujjatlari, 10 144 ta Mahalliy davlat organlari qarorlari, 311 Sud hujjatlari, 1547 ta xalqaro hujjatlar, 819 ta texnik hujjatlar, 582 sud amaliyoti, 46 ta O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining hujjatlari qabul qilingan (imzolangan) ekan[8]. Shular va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning barchasida Inson huquqlari eng oliy qadriyat sifatida gavdalandirilsa va rasman kuchga kirgan kundan boshlab, xalq ularga amal qilsa nur usitga a'lo nur bo'lardi. Qaysi bir davlatda inson huquqlari toptalsa, u davlat rivojlanmaydi, aksincha qaysi davlatda inson huquqlarni himoya qilish bosh maqsad qilib olinsa u rivoj topadi. Mana shulardan kelib chiqqan holda yurtimizda ham inson manfaatlarini himoya qilishda sudlarni shaffofligini ta'minlash kerakdir. Shuni aytishim mumkinki, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengdir. Ular davlat himoyasida. Inson huquqlari va kafolatlari nafaqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7,8,9,10-boblarida, shuningdek, shu bugungacha qabul qilingan barcha normativ-huquqiy hujjatlarda ham mustahkamlab qo'yilgan va ularning asosiy prinsiplaridan biri bo'lib kelmoqda.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi-Toshkent-2023-yil.
2. <https://constitution.uz/oz/pages/maqola55>
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi-1948-yil.

4. Yusupov, R. M., & Isomiddinov, S. A. (2022). Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy va huquqiy asoslari. *Gospodarka i Innowacje*, Vol.: 24, 1-4.
5. <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
6. <https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=51937>
7. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
8. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari milliy ma'lumotlar bazasi.